

**ZO‘RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR
TUSHUNCHASI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI**

Salimjonov Axadjon Alisher o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik

universiteti magistranti

axadjontsul@gmail.com

telefon raqam (+998) 97-000-78-08

Annotatsiya. Ushbu tezisda zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tavsifi, mazkur jinoyatlarning sabablari, ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar hamda ularni oldini olish va profilaktika masalalari tahlil qilinadi. Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishda zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish haqida fikr yuritiladi. Zo‘ravonlik jinoyatlarining asl ildizlari, sabablari hamda ularni oldini olish masalasi, mazkur jinoyatlarga qarshi kurash haqida olimlarning qarashlari, fikr va mulohazalari tahlil qilinib guruhlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar, zo‘ravonlik, jabrlanuvchi, viktimlik, jazo tayinlash, zo‘ravonlik belgilari.

Kirish

Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar – jinoyat huquqida zo‘rlik ishlatib shaxsning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy erkinligiga, mulkka, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga, boshqaruv tartibiga, jamoat xavfsizligiga, jamoat tartibiga qarshi sodir etiladigan jinoyatlardir. Ular ko‘pincha qasddan odam o‘ldirish; terroristik akt; xalqaro himoya huquqi bor shaxsga tajovuz qilish; qasddan sog‘liqqa og‘ir, o‘rtacha, yengil shikast yetkazish, jismoniy azob berish, noqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish; shaxsni garovga olish; boshliqqa nisbatan zo‘rlik ishlatish kabilardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bevosita zo‘rlik ishlatib yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib sodir etish mumkin bo‘lgan quyidagi qilmishlar jinoyat sifatida belgilangan: [11]

- qasddan odam o‘ldirish (JK 97-m.);
- kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida qasddan odam o‘ldirish (JK 98-m.);
- onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi (JK 99-m.);
- zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish (JK 100-m.);
- o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-m.);
- qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 104-m.);
- qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 105-m.);

- qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m.);
- qiynash (JK 110- m.);
- o‘ldirish yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish (JK 112-m.);
- jinoiy ravishda homila tushirish, abort (JK 114-m.);
- ayolni o‘z homilasini sun’iy ravishda tushirishga majburlash (JK 115-m.);
- nomusga tegish (JK 118-m.);
- Jinsiy ehtiyojni zo‘rluk ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-m.)
- ayolni jinsiy aloqa qilishga majburlash (JK 121-m.);
- ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish (JK 136-m.);
- zo‘rluk ishlatib g‘ayritabiiy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (JK 138-m.);
- haqorat qilish (JK 140-m.);
- bosqinchilik (JK 164-m.);
- tovlamachilik (JK 165-m.);
- talonchilik (JK 166-m.).

Bu kabi jinoyatlarning kelib chiqish sabablari borasida turli olimlar turlicha fikrlar bildirgan bo‘lsada, ularni umumiyLashtirgan holda bir qancha asosiy sabablarni keltirish mumkin. Jumladan quyidagilarni shular qatoriga kiritish mumkin: Jinoyatchining shaxsidagi salbiy belgilar va undagi jinoyatga moyillik; viktimologik sabablar; o‘zaro kelishmovchiliklar; jamiyatdagi noto‘g‘ri shakllangan tushunchalar; hududda mazkur jinoyatlar darajasining yuqoriligi; tengdoshlarining ta‘siri (peer pressure); spirtli ichimliklar va g‘iyohvandlik moddalariga ruju qo‘yish. Shu o‘rinda zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishda amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda sohada yana bir qancha chora-tadbirlar qilinishi lozim. Jumladan, jamoatchilikning mazkur jinoyatlarga qarshi kurashishda faol emasligi, ko‘plab holatlarga ko‘z yumilishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berilmasligi (asosan oilaviy zo‘ravonlikda), ommaviy axborot vositalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida ochiq va tezkor axborot almashish darajasi sustligi, mahalla va boshqa jamoat joylarida zo‘ravonlik holatlarini oldini olish borasida profilaktik ishlar amalga oshirilmasligi, aholining huquqiy savodxonligi ustida qilinayotgan ishlar amalda ko‘zlangan natijani bermayotganligi va shunga o‘xshash boshqa holatlar zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish lozimligini ko‘rsatib bermoqda.

Mazkur tezisda bilishning umum-ilmiy dialektik metodidan foydalanilgan. Bundan tashqari jinoiy-statistik, siyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalaniladi. Mavzu yuzasidan olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar beriladi.

Asosiy qism

Kriminologiyada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar asosan quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganiladi:

- hayotga va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- oiladagi zo'ravonlik;
- shaxsiy erkinlikka qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- mulkka qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- jamoat tartibiga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar.

Quyida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning har bir guruhini alohida tarzda kriminologik jihatdan tahlil qilamiz.

Hayotga va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar.

Hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga quyidagilar kiradi: qasddan odam o'ldirish (JK 97-modda), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-modda), onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-modda), zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 100-modda), Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 101-modda), Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-modda), Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-modda), Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 106-modda), Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 107-modda), Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish (JK 108-modda), Qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-modda), Qiynash (JK 110-modda).

Yuqoridagi jinoyatlar ichida qotillik - ya'ni qasddan odam o'ldirish jinoyati ijtimoiy jihatdan xavfi ancha yuqori bo'lgan jinoyat hisoblanib, qotillik jinoyati davlatda xavfsiz ijtimoiy jamiyat qurish borasida muammolar borligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatda jinoyatchilikning umumiy ko'rsatkichlari pasayishiga erishilganiga qaramasdan, ayrim og'ir hududlarda jinoyatchilikning ko'rsatkichi oshganligi hamda ayrim turdagi jinoyatlarning sodir etilishi kuzatilmoqda.

Ya'ni respublika miqyosida qasddan odam o'ldirish va o'ldirishga suiqasd qilish jinoyatlari soni 2015-yilda – 766 ta, 2016-yilda – 743 ta, 2017-yilda – 593 ta, 2018-yilda – 503 ta, 2019-yilda – 351 ta, 2020-yilda – 445 ta, 2021-yilda – 496 ta, 2022-yilda – 397 ta, 2023-yilda – 363 tani tashkil qilgan. [17]

Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish 2015-yilda – 1478 ta, 2016-yilda – 1775 ta, 2017-yilda 1600 ta, 2018-yilda 1350 ta, 2019-yil sentabr oyigacha esa 633 ta sodir etilgan. [18]

Jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar. Mazkur jinoyatlarga Nomusga tegish (JK 118-modda), Jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiyy usulda qondirish (JK 119-modda), Shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (JK 121-modda) kiradi.

Ushbu jinoyatlarni sodir etishning asosiy motivi jinsiy ehtiyojni shahvoniy shaklda qondirish istagi hisoblanadi. Ba‘zan zo‘rlik sodir etgan shaxsning jinsiy motivlari bezorilik motivlari bilan, kattalarga taqlid qilish, ayolni kamsitish yoki uni obro‘sizlantirish, ustidan kulish, undan o‘ch olish istagi bilan qo‘shilib ketadi. Ko‘pincha zo‘ravonning jinoyatkorona xatti-harakatidagi asosiy motiv zo‘ravonlikka, tajovuzkorlik, shafqatsizlik va o‘zining jinsiy ehtiyojini qondirish istagiga aylanadi.

Nomusga tegish jinoyatlari tuzatib bo‘lmaydigan salbiy oqibatlar, jabrlanuvchilarga chuqur jismoniy, ma‘naviy va psixologik jarohatlar yetkazilishi sababli yuqori darajadagi ijtimoiy xavfli harakter kasb etuvchi jinoyatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida nomusga tegish va nomusga tegishga urinish jinoyati sodir etganlar soni 2015-yilda – 549 ta, 2016-yilda – 481 ta, 2017-yilda – 376 ta, 2018-yilda – 222 ta, 2019-yilda – 213 ta, 2020-yilda – 272 ta, 2021-yilda – 383 ta, 2022-yilda – 361 ta, 2023-yilda – 452 tani tashkil etgan.

14 yoshga to‘lmagan bola bilan zo‘rlik ishlatib, jinsiy aloqaga kirishish jinoyatini sodir etganlar soni esa 2019-yilda – 52, 2020-yilda – 35, 2021-yilda – 57, 2022-yilda – 73 nafarni tashkil etgan. [14]

Statistika ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2023-yilda nomusga tegish va nomusga tegishga urinish jinoyati sodir etganlar soni 2019-yildagiga nisbatan qariyb ikki barobarga ko‘paygan. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda yurish-turish normalari, yoshlarning dunyoqarashi, insonlarning hayotga bo‘lgan qarashlari, jamiyatdagi qadriyatlarining o‘zgarishi hamda internet orqali turli xildagi mafkura va madaniyatlar qorishmasining jamiyatga ko‘rsatgan ta‘siri natijasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oiladagi zo‘ravonlik. So‘nggi yillarda yurtimizda oila va undagi muhitni sog‘lom va mustahkam qilish, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan bo‘ladigan zo‘ravonliklarni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-aprelda qabul qilingan 829-sonli “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himioya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga 126-1-moddasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga 59-2-moddasi kiritildi. [19]

Jinoyat kodeksining 126-1-moddasida xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, mol-mulkiga va

shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog‘lig‘ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo‘rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yuz oltmish soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot xizmatining ma’lum qilishicha, 2023-yilning 12 aprel kundan yil oxirigacha Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi bilan 203 nafar shaxs sudlanib, ularning 59 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 144 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlangan.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 59-2-moddasi bilan esa 8928 nafar shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilgan. Ularning 5229 nafariga jarima jazosi, 3699 nafariga ma’muriy qamoq jazosi qo‘llangan. [20]

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki 9 oylik muddat davomida yurtimizda 203 nafar shaxs Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi bilan sudlangan, 8928 nafar shaxs Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 59-2-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan.

Oiladagi jinoyatlar yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kelib tushgan murojaatlarni o‘rganishda 106 ta jinsiy, 234 ta iqtisodiy, 18777 ta ruhiy, 13658 ta jismoniy zo‘ravonlik hamda 7174 ta tazyiq holatlar aniqlangan.

Qo‘llanilgan himoya orderlari natijada 20769 ta holatda oila yarashtirilgan, 15142 tasida nizo bartaraf etilgan, 921 tasida oilada ajrim holati kuzatilgan, 2222 ta holatda nizo bartaraf etilmagan. [21]

Oilada sodir etiladigan jinoyatlarni o‘rganish davomida “Google” platformasi orqali so‘rovnoma (keying o‘rinlarda so‘rovnoma deb yuritiladi) o‘tkazildi va unda mavzuga doir turli xil savollar respondentlar e’tiboriga havola qilindi. Mazkur so‘rovnomada 18-24 yoshlar oralig‘ida bo‘lgan jami 70 nafar yoshlar ishtirok etdilar va o‘zlarining mavzuga doir fikr va mulohazalarini bildirib o‘tdilar.

Jumladan respondentlar e’tiboriga havola qilingan “Yoshligingizda ota-onangiz tomonidan kaltaklanganmisiz?” degan savolga ishtirokchilarning 11.4% qismi bu holat tez-tez uchrab turganligi haqida fikr bildirishgan. Respondentlarning 54.3% qismi yoshlik chog‘larida ota-onasi tomonidan kaltaklanganligini tan olib, biroq bu holatlar juda kam bo‘lganligini bayon qilgan. So‘rovnomada qatnashgan 70 nafar ishtirokchining deyarli uchdan bir qismi, ya’ni 34.3% ota onasi tomonidan umuman kaltaklanmasdan voyaga yetganligini aytib o‘tgan. (1-ilovaga qarang)

Mulkka qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar. Mazkur jinoyatlarga bosqinchilik (JK 164-modda), talonchilik (JK 165-modda) va tovlamachilik (JK 166-modda) kiradi.

Mulkka qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundaki, bu turdagi jinoyatlar natijasida shaxsiy va xususiy mulkka moddiy zarar yetkaziladi. Shu bilan birga, jinoyat sodir etgan shaxslarning o‘z vaqtida aniqlanmasligi va javobgarlikka tortilmasligi va bir tomondan, ularning g‘ayriqonuniy boylik orttirishiga, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanmasdan tekinxo‘rlarcha hayot kechirishiga imkon yaratsa, boshqa tomondan, bu holatlar jinoyat sodir etgan shaxslar uchun javobgarlik va jazoning ta‘minlanmasligiga, jabr ko‘rgan shaxslarga jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararining qoplanmasligiga va odamlar ongida ichki ishlar organlarining o‘z vazifalarin bajarmayotganligi haqida fikrlar shakllanishiga hamda provard-natijada davlatga ishonchning yo‘qolishiga olib keladi. [2]

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yhatga olingan talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari soni 2015-yilda – 1780 ta, 2016-yilda – 1516 ta, 2017-yilda – 1189 ta, 2018-yilda – 589 ta, 2019-yilda – 401 ta, 2020-yilda – 534 ta, 2021-yilda – 1344 ta, 2022-yilda – 913 ta, 2023-yilda – 762 tani tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yhatga olingan tovlamachilik jinoyatlari soni 2015-yilda – 426 ta, 2016-yilda – 412 ta, 2017-yilda – 305 ta, 2018-yilda – 201 ta, 2019-yilda – 152 ta, 2020-yilda – 206 ta, 2021-yilda – 354 ta, 2022-yilda – 364 ta, 2023-yilda – 477 tani tashkil etgan. [22]

Qurolli bosqinchilik va talonchilik - bu shaharlarga, shahar atrofi hududlariga va shahar tipidagi posyolkalarga xos jinoyatlardir. Ularning yarmidan ko‘pi kechki va tungi vaqtlarda ko‘chalarda, bog‘ va xiyobonlarda sodir etiladi. Odatda, bu odamlar kam yuradigan ko‘chalar, gavjum bo‘lmagan hovlilar va yoritilmagan jamoat joylari, shuningdek, uylarning podyezdleri va liftlar bo‘ladi.

Rus olimi A.I. Dolgov o‘zining kriminologiya darsligida zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga quyidagicha ta‘rif beradi: “Zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar — bu jismoniy kuch qo‘llash yoki bunday kuchni qo‘llash tahdidi bilan sodir etilgan jinoyatlar majmuasidir. Ularning asosiy va bevosita maqsadi inson hayotidan mahrum qilish, uning sog‘lig‘iga zarar yetkazish, jismoniy erkinligini cheklash, tananing (shu jumladan jinsiy daxlsizlikning) erkinligiga qarshi harakat qilishdir. Shuningdek, bu tushuncha ma‘lum hududda va ma‘lum vaqt ichida zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar majmuasini ham o‘z ichiga oladi.” [1; 235-b]

Zo‘ravonlik nafaqat jismoniy yoki ruhiy salomatlikka zarar yetkazishi bilan ijtimoiy xavfli, balki jabrlanuvchini o‘z e‘tiqodi va qadriyatlariga zid bo‘lgan harakatlarni amalga oshirishga moyil qilib qo‘yishi bilan ham jamiyat uchun katta xavfdir.

«Zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlar deganda jinoyat qonunida nazarda tutilgan, shaxsga qasddan jismoniy zarar yetkazadigan harakatlarni, shuningdek boshqa zarar yetkazish tahdidlarini, insonga majburlovchi ta‘sir ko‘rsatishni, uning tazyiq ostida bo‘lishini, shaxsiy daxlsizlikning buzilishini tushunamiz. Zo‘ravonlik natijasida hayotdan mahrum qilish, somatik yoki inson psixikasiga zarar yetkazish, shaxsning sha‘ni, qadr-qimmati va erkinligining buzilishi, uning ijtimoiy maqomining salbiy o‘zgarishi yuzaga kelishi mumkin», - deb yozadi Yu.M. Antonyan. [2; 54-b]

Adabiyotlarda zo‘ravonlikning bir nechta turlari va shakllari farqlanadi:

Psixologik zo‘ravonlik - bu bevosita psixologik jarohat yetkazadigan harakatlar: tahdidlar, haqoratlar, tuhmat, tovlamachilik, obro‘sizlantirish, majburlash va zo‘rlash, to‘sqinlik qilish, insonning irodasini cheklash va boshqalar; jismoniy zo‘ravonlik – insonni hayotidan mahrum qilish, uning jismoniy salomatlik holatiga zarar yetkazish bilan bog‘liq harakatlardir. [3; 24-b]

Rus olimi N.F. Kuznevtsova o‘zining kriminologiya darsligida zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni birlashtiruvchi asosiy belgi - bu shaxsga nisbatan jismoniy yoki psixik zo‘ravonlikning turli jinoyat maqsadlariga erishish vositasi sifatida qo‘llanilishidir deb aytib o‘tadi. Bu orqali olim, shaxsga nisbatan zo‘rluk asosan ikki xil shaklda jismoniy va psixologik shaklda bo‘lishi mumkinligiga ishora qilgan. [4; 302-b]

Zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatchilikning sabablariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, jinoyatchilik darajasiga ta‘sir etuvchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- Ijtimoiy omillar: aholining soni, migratsiya, ijtimoiy nazoratning zaifligi, oilaviy va jamiyatdagi muammolar (masalan, oilaviy zo‘ravonlik, ajrimlar), ijtimoiy tengsizlik;

- Iqtisodiy omillar: ishsizlik, iqtisodiy inqirozlar, daromadlarning noteng taqsimlanishi, moliyaviy qiyinchiliklar;

- Siyosiy omillar: siyosiy beqarorlik, korrupsiya, huquq-tartibot organlarining samaradorligining pastligi;

- Madaniy va psixologik omillar: ijtimoiy qadriyatlar, madaniyat, shaxsning psixologik xususiyatlari (agressivlik, impul’sivlik), jinoyatni normal qabul qiluvchi subkulturalar mavjudligi;

- Atrof-muhit va infratuzilma: yetarlicha yoritilmagan ko‘chalar, jamoat joylarining zaif nazorati, jinoyatchilik sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hududlar bilan alohida tartibda ishlanmasligi.

Stanton E.Samenov o‘zining “Inside the criminal mind” asarida quyidagicha yozadi “Jinoyat sabablarining asl ildizi uni sodit etishga bo‘lgan imkoniyatning mavjudligidir.” [5; 78-b] Amerikalik kriminolog olimning yuqoridagi fikrlariga

qisman qo‘shilish mumkin bo‘lsa-da lekin amaliyot uning fikrlarini mutlaq rad etadi. Sababi jinoyat sodir qilish jismoniy harakatlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan har qanday shaxsning qo‘lidan kelishi mumkin. Jinoyatlarni butunlay nazoratga olishning imkoni mavjud emas.

Jinoyatchilikning sabablari va sharoitlari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjud bo‘lib, bu esa “jinoyatchilik determinantlari” degan umumlashtirilgan tushunchani qo‘llashga imkon beradi. Bu tushuncha har ikkala — sabablar va sharoitlarni — o‘z ichiga oladi. Sharoitlar o‘z-o‘zidan jinoyat va jinoyatchilikni yuzaga keltira olmaydi. Biroq sabablar mavjud bo‘lmasdan ular shakllanmaydi va ro‘yobga chiqmaydi. “Sabab–sharoit” o‘zaro ta’siri tizimi ichida sifat jihatidan muhim farq saqlanib qoladi: bu — sabablar jinoyatchilikni yuzaga keltiradi, sharoitlar esa jinoyat sodir bo‘lishiga ko‘maklashadi. Sabablar, mazmunan, ijtimoiy-psixologik xarakterga ega bo‘ladi. Sharoitlar esa iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa mazmunlarga ega bo‘ladi. Sabablar jinoyatchilikni yuzaga keltiradi, sharoitlar esa uni ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Ular tarkibiy va mexanizm xususiyatlariga ko‘ra o‘rin almashishi mumkin.

Professor V.P. Emelyanov jinoyatlarning sabablari borasidagi o‘z izlanishlari natijasida quyidagi xulosaga kelganini bayon qiladi: “Faqat iqtisodiy, mafkuraviy, ijtimoiy va biologik omillarning ma’lum bir majmuasi jinoyat deb ataluvchi reaksiyani keltirib chiqaradi. Jinoyatchilikning sababi — bu ijtimoiy va biologik tabiatga ega bo‘lgan turli hodisalarning sintezidir” [6; 33-b]

Chezare Lombroso jinoyatlarning sabablari haqidagi fikrlarini quyidagicha bayon qilgan: “Har qanday jinoyat ko‘plab sabablar natijasidir; va ko‘p hollarda bu sabablar o‘zaro bog‘langan va aralashgan bo‘lsa-da, biz ularning har birini alohida ko‘rib chiqishimiz kerak.” [7; 135-b]

1896 yilda Enriko Ferri bu yondashuvni yanada rivojlantirgan. Uning yozishicha: “Insonning barcha harakatlari uning fiziologik va ruhiy holati hamda o‘sib ulg‘aygan jismoniy va ijtimoiy muhit mahsulidir, shuning uchun men jinoyatchilik omillarini uch toifaga bo‘ldim: antropologik yoki individual, jismoniy va ijtimoiy.” [8; 306-b]

Bu vaqtda boshqa bir kriminolog olim N.P. Dubinin “Inson ijtimoiy xulq atvor bilan tug‘ilmaydi, balki uning xulq-atvori va dunyoqarashi yillar davomidagi hayotiy tajribalarida shakllanadi” degan fikrni ilgari suradi. [9; 64-b]

Zo‘rlilik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish borasida so‘nggi yillarda yurtimizda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning 03.01.2025 yildagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni hamda

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi bilan belgilangan mas’ul idoralar va muassasalar uchun 2025-yilda “Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” ustuvor vazifa etib belgilandi va quyidagi ishlash mexanizmlari joriy etildi: [13]

2024-yilda jinoyat sodir etilgan har bir mahallada kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilishning mahallalar kesimida choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilagan holda mahalla — tuman — viloyat darajasida uning ijrosi uchun bevosita mas’ul rahbarlarni biriktirish va aniq sohaviy javobgarlikni yuklash;

kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda maqsadli o‘rganishlarni o‘tkazish orqali huquqbuzarliklarga sabab bo‘layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko‘rish;

mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda “mahalla yettiligi” har bir vakilining aniq mas’uliyatini belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga yangicha ish uslublarini tatbiq qilish;

aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish;

mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish;

mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo‘yicha har bir mas’ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat’iy so‘rov tizimini yo‘lga qo‘yish hamda ushbu masalaga mas’uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta’sir choralarni ko‘rib borish.

Xulosalar

Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish davrida zo‘rlilik ishlatib sodir etiladigan jinoyatchilikning ko‘payish darajasi ularning profilaktikasi va oldini olish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi, ularni huquqiy jihatdan tartibga solish kerakligini ko‘rsatadi. Jumladan, zo‘ravonlik jinoyatlarini har tomonlama tahlil qilish orqali zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni jinoiy-huquqiy va kriminologik nuqtayi nazardan kengroq o‘rganish, bu borada yanada chuqurroq tahlillar amalga oshirish, zarur bo‘lsa zo‘ravonlikka moyil shaxslar reestrini tashkil qilish ishlarini yo‘lga qo‘yish lozim bo‘ladi. Zo‘rlilik ishlatib sodir etiladigan jinoyatchilik va ularni oldini olish masalalarini tahlil qilish natijasida quyidagicha takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, yoshlar o‘rtasidagi zo‘ravonliklarni barvaqt oldini olish maqsadida maktab, litsey va oliygohlarda “Zo‘ravonlik nima?”, “Zo‘ravonlikka qarshi qanday munosabat bildirish kerak?” kabi mavzularda muntazam dars va treninglar o‘tkazilishini yo‘lga qo‘yish lozim.

Ikkinchidan, mahallalarda yashovchi oilalarning mustahkamligini oshirish va ularning tinchligini ta‘minlash maqsadida viloyat/shahar/tuman kesimida “*Eng faol mahalla*”, “*Huquqbuzarlikdan holi mahalla*” kabi tamoyillar asosida mahallalarni rag‘batlantirish va unda istiqomat qiluvchi faol shaxslarga turli xil imtiyozlar, jumladan bepul sayohat chiptalari, har oylik bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish va davolanish uchun, sanatoriyalar uchun yo‘llanmalar berish, foizsiz kreditlar ajratish, ipoteka kreditlari berish, tadbirkorlikka jalb qilish, yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlar va shunga o‘xshash bir vaqtning o‘zida ham oila ham davlat uchun samarali bo‘lgan imtiyozlar joriy etish zarur.

Uchinchidan, nazariyaga va keyinchalik bosqichma-bosqich tarzda qonunchilikka “status zo‘ravonligi” tushunchasini kiritish va uni quyidagi tahrirda bayon etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Status zo‘ravonligi — *bu mansab, ijtimoiy mavqe, xizmat yoki boshqa rasmiy yoki norasmiy ierarxik ustunlikdan foydalanib, boshqa shaxsga nisbatan jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy bosim o‘tkazish, shuningdek taziyiq yoki kuch ishlatish orqali unga zarar yetkazish yoxud huquq va erkinliklarini cheklash shaklida ifodalanuvchi zo‘ravonlik.*

To‘rtinchidan, Jinoyat kodeksining atamalarning huquqiy ma‘nosi keltirilgan sakkizinchi bo‘limiga quyidagi atamani kiritish:

Zo‘ravonlik — *shaxsga nisbatan nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta‘sir o‘tkazish yoki bunday ta‘sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik).*

Beshinchidan, Amaldagi jinoyat kodeksining 66¹-moddasi birinchi qismiga ko‘ra Jinoyat kodeksining 126¹-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi va **to‘rtinchi** qismlarida (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o‘z aybiga iqror bo‘lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi belgilangan. [11]

Biroq amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab holatlarda bu turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchi o‘rtacha og‘irlikdagi tan jarohati olgan bo‘lsada, ayblanuvchi (zo‘ravon) o‘zining turmush o‘rtog‘i bo‘lganligi bois ruhiy bosimlar natijasida majburlikdan yarashmoqda. Shuni inobatga olib, mazkur moddaning ushbu qismini quyidagicha yangi tahrirga o‘zgartirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Jinoyat kodeksining 126^l-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi qismlarida (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o‘z aybiga iqrор bo‘lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А. И. Долговой. Криминология: Учебник для вузов/Под общ. ред. д. ю. н., К82 проф.— 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Норма, 2005. - 912 с.
2. Niyozova, S.S., Salayev, N.S. Kriminologiya (maxsus qism) [Matn]: Darslik – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 360-b.
3. Шляпникова О. В., Логинова О. Л. Категория насилия как объект криминологического исследования // Криминальное насилие: общие проблемы и опыт борьбы в Республике Саха (Якутия). С. 24—32.
4. Н.Ф. Кузнецовой, проф. В.В. Лунеева. – 2-е изд., перераб. И доп. – М.: Волтерс Клувер, 2004. – 640 с.
5. Inside the criminal mind. Stanton E.Samenow.. revised edition: Crown publishers, 2004. ISBN 140004619X, 9781400046195. P-78.
6. Емельянов В. П. Преступность лиц с психическими аномалиями. Саратов, 1980. С. 33.
7. Cesare Lombroso. Causes and Remedies –. Stanford University libraries Cecil. H Green library Stanford, California 94305-6004 (415) 723-1493 P 471.
8. Ферри Э. Уголовная социология. Т. 1. М., 1910. С. 306..
9. Коммунист. 1980. № 11. С. 64.
10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
11. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
12. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // <https://lex.uz/docs/-97664> .
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 03.01.2025 yildagi PQ-1-son <https://lex.uz/uz/docs/-7330260> .
14. <https://siat.stat.uz/reports-filed/807/table-data> Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy vebsaytida joylashtirilgan statistika ma’lumoti.
15. <https://kun.uz/55216986> .
16. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/12/domestic-violence/> .
17. <https://siat.stat.uz/reports-filed/807/table-data> Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy vebsaytida joylashtirilgan statistika ma’lumoti.
18. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari, 2016-yil 9-mart 01/3-01-26-139-son va 2019-yil 28-oktabrdagi 01/4-01-19-1156-son xatlari.

19. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son. <https://lex.uz/docs/-6430272>
20. Oliy sud matbuot xizmati rahbari Aziz Obidov o'zining telegram ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida ma'lum qilgan . <https://t.me/AzizAbidov/4556>
21. Gazeta.uz axborot yangiliklar vebsaytining 2021 yil 27-apreldagi sonidagi "2021 yilda ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining 87 foizi oilada sodir etilgan" nomi ostidagi maqolasi. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/27/violence/>
22. <https://siat.stat.uz/reports-filed/807/table-data> Davlat statistika qo'mitasining rasmiy vebsaytida joylashtirilgan statistika ma'lumoti.

[1-ilova](#)

